




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **3909** tani tashkil etib, 2022- yil 1- iyulga nisbatan 370 taga kamaygan (o'sish sur'ati 90,4 %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 85 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2773 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **4392,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **103,5** % ga yetdi.

Shumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **188,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **154,2** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4204,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **102,0** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **565,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,1** %) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste‘mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik , mlrd. So‘m	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4 392,8	103,5	188,4	154,2	4 204,4	102,0
Nukus shahri	826,1	102,2	38,7	106,1	787,4	102,0
tumanlar:						
Amudaryo	376,3	102,6	7,5	77,1	368,8	103,3
Beruniy	232,9	101,6	14,6	105,3	218,3	101,4
Bo‘zatov	57,7	102,1	0,1	59,1	57,6	102,2
Qorao‘zak	205,3	101,5	0,6	90,2	204,8	101,6
Kegeyli	185,4	102,3	0,7	83,9	184,7	102,4
Qo‘ng‘irot	345,9	102,0	8,2	84,6	337,7	102,5
Qonliko‘l	167,4	102,3	0,2	50,1	167,2	102,5
Mo‘ynoq	43,7	101,9	0,2	56,9	43,5	102,3
Nukus	134,9	102,2	0,4	58,1	134,5	102,5
Taxiatosh	194,5	141,8	79,9	723,0	114,5	90,8
Taxtako‘pir	145,5	102,2	0,4	62,5	145,1	102,3
To‘rtko‘l	496,7	102,8	18,1	110,8	478,6	102,5
Xo‘jayli	388,6	101,9	6,9	87,4	381,7	102,2
Chimboy	223,5	102,3	4,9	89,0	218,6	102,7
Shumanay	99,9	101,2	0,3	59,7	99,5	101,4
Ellikqal‘a	268,5	102,7	6,7	90,8	261,8	103,0

2023- yilning yanvar-iyun oylarida 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan respublikaning Nukus shahri (102,2 %), Taxiatoşh (141,8 %), To‘rtko‘l (102,8%) va Ellikqal‘a (102,7 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi.

TUMAN KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda




2023- yilning yanvar-iyun oylarida o'sish sur'ati 103,5 % ni tashkil qildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4204,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **102,0** % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **95,7** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **154,2%** ga o'sdi va **188,4** mlrd. so'mni tshkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **4,3** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Nukus shahri	4,7	95,3
Ellikqal'a	2,5	97,5
Shumanay	1,3	
Chimboy	2,2	97,8
Xo'jayli	1,8	98,2
To'rtko'l	3,6	96,4
Taxtakopir	1,3	99,7
Taxiatosh	41,1	58,9
Nukus	1,3	99,7
Mo'ynoq	1,5	99,5
Qonliko'l	1,1	
Qo'ng'iro't	2,4	97,6
Kegeyli	1,4	99,6
Qorao'zak	1,3	99,7
Bo'zatov	1,2	99,8
Beruniy	6,3	93,7
Amudaryo	2,0	98,0

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,7 %), Bo'zatov (99,8 %) va Qonliko'l (99,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiato'sh (41,1%), Beruniy (6,3%), Nukus shahri (4,7%) va To'rtko'l (3,6%) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 216,9	102,1
Nukus shahri	2 462,3	100,6
tumanlar:		
Amudaryo	1 798,0	100,8
Beruniy	1 152,9	99,7
Bo'zatov	2 635,9	101,6
Qorao'zak	3 788,7	100,6
Kegeyli	2 495,4	101,6
Qo'ng'iro't	2 564,2	100,7
Qonliko'l	3 146,4	101,2
Mo'ynoq	1 303,5	101,0
Nukus	2 540,5	100,3
Taxiatosh	2 548,9	140,7
Taxtako'pir	3 740,5	106,9
To'rtko'l	2 201,7	101,1
Xo'jayli	3 045,6	100,6
Chimboy	1 941,5	101,5
Shumanay	1 730,6	100,1
Ellikqal'a	1 594,6	100,7

2023- yilning yanvar-iyun holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2216,9** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **102,1%**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm **Taxtako'pir (3740,5** ming. so'm), **Qorao'zak (3788,7** ming. so'm) va **Xo'jayli (3045,6** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI




Respublika bo'yicha 2023- yilning yanvar-iyun oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **565,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **106,1** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **267,5** mlrd. so'mni (107,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **298,0** mlrd so'mni tashkil etdi (**105,3** %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	565,5	106,1	267,5	107,0	298,0	105,3
Nukus shahri	65,5	115,4	31,0	116,5	34,5	114,5
tumanlar:						
Amudaryo	40,8	130,2	19,3	131,0	21,5	129,3
Beruniy	43,1	114,2	20,4	115,6	22,7	113,7
Bo'zatov	11,2	80,0	5,3	80,6	5,9	79,1
Qorao'zak	31,3	101,6	14,8	102,9	16,5	100,6
Kegeyli	63,8	130,0	27,3	118,7	33,6	129,2
Qo'ng'iro't	27,2	80,2	12,9	81,1	14,3	79,7
Qonliko'l	26,4	100,8	12,5	101,7	13,9	99,8
Mo'ynoq	5,6	98,8	5,6	98,8	-	-
Nukus	26,2	91,8	12,4	92,5	13,8	90,9
Taxiatosh	7,4	49,6	3,5	49,8	6,9	87,0
Taxtako'pir	25,2	114,0	11,9	114,6	13,3	113,1
To'rtko'l	84,3	115,3	39,9	116,3	44,4	114,3
Xo'jayli	31,9	99,6	15,1	100,2	16,8	99,2
Chimboy	41,3	101,3	19,5	102,4	21,8	100,6
Shumanay	12,5	86,6	5,9	86,9	6,6	85,6
Ellikqal'a	21,7	101,5	10,3	102,1	11,4	100,4

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;











– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **267,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**107,0** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	116,8
	Non va non mahsulotlari	27,2
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	28,0
	Tovuq go'shti	14,1
	Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	12,5
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	17,8
	Tuxum	16,4
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	11,4
	Ziravorlar	8,2
	Tuzlamalar	9,3
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	5,8
	Nooziq-ovqat tovarlari	-

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-iyun oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **298,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **208,6** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **33,0** mlrd. so‘mni, otlar – **4,8** mlrd. so‘mni, parrandalar – **2,8** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	109,0
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	44,3
	1 yoshgachah bo‘lgan yosh mollar	55,3
	Qo‘ylar	21,0
	Otlar	4,8
	Echkilar	12,0
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	2,2
	Tovuqlar	0,6
	Quyionlar	-
	Qushlar	-

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1051** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – iyul holatiga nisbatan **266** taga kamaygan va o'sish sur'ati **73,8 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **0** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1051** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **3,1 %** ni tashkil etib, **137,6** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **103,2%** ga o'sdi.. Bunda savdo aylanmasining **100,0%** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	137,6	103,2			137,6	103,4
Nukus shahri	62,9	87,7			62,9	88,1
tumanlar:	-				-	
Amudaryo	6,6	94,8			6,6	94,8
Beruniy	4,8	92,2			4,8	92,2
Bo'zatov	0,4	102,5			0,4	102,5
Qorao'zak	3,3	146,0			3,3	146,0
Kegeyli	1,5	97,6			1,5	97,6
Qo'ng'iro't	28,8	158,0			28,8	158,0
Qonliko'l	1,4	97,0			1,4	97,0
Mo'ynoq	0,6	161,8			0,6	161,8
Nukus	1,1	202,4			1,1	202,4
Taxiatosh	3,4	148,3			3,4	148,3
Taxtakopir	0,9	127,5			0,9	127,5
To'rtko'l	7,1	91,9			7,1	91,9
Xo'jayli	7,4	99,0			7,4	99,0
Chimboy	3,4	131,6			3,4	131,6
Shumanay	0,6	95,4			0,6	95,4
Ellikqal'a	3,3	102,8			3,3	102,8

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- iyul holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) **1028,3** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **125,3%** ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **402,1** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **116,0%**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **626,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **123,8 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 028,3	100,0
Nukus shahri	661,1	64,3
tumanlar:		
Amudaryo	11,0	1,1
Beruniy	246,4	24,0
Bo'zatov	0,5	0,0
Qorao'zak	3,1	0,3
Kegeyli	49,9	4,9
Qo'ng'iro't	1,0	0,1
Qonliko'l	1,7	0,2
Mo'ynoq	3,1	0,3
Nukus	-	-
Taxiatosh	2,1	0,2
Taxtako'pir	1,6	0,2
To'rtko'l	23,4	2,3
Xo'jayli	8,2	0,8
Chimboy	7,5	0,7
Shumanay	0,0	0,0
Ellikqal'a	7,7	0,8

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Nukus shahri (**661,1** mlrd. so'm), Beruniy (**246,4** mlrd. so'm) va Kegeyli (**49,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



35,6

Respublika bo‘yicha 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1639,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **106,4%** ni tashkil qildi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1439,4** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,5%**ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **87,8 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Nukus shahrida (126,7%) va Taxiatosh tumanida (113,8%) kuzatildi.

2023- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **1014** tani tashkil etib, 2022- yil 1- iyul holatiga nisbatan **150** taga kamaygan, o'sish sur'ati **85,3%** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **7** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1007** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 639,0	106,4	199,6	114,2	1 439,4	105,5
Nukus shahri	717,2	105,0	6,6	126,7	710,6	104,8
tumanlar:						
Amudaryo	35,0	107,5	-		35,0	107,5
Beruniy	90,6	107,9	-		90,6	107,9
Bo'zatov	3,4	102,7	-		3,4	102,7
Qorao'zak	25,2	108,8	-		25,2	108,8
Kegeyli	11,4	126,3	-		11,4	126,3
Qo'ng'iro't	66,1	108,5	-		66,1	108,5
Qonliko'l	34,5	103,5	-		34,5	103,5
Mo'ynoq	52,5	104,2	-		52,5	104,2
Nukus	29,0	105,1	-		29,0	105,1
Taxiatosh	237,7	112,5	193,0	113,8	44,7	107,1
Taxtako'pir	16,6	104,1	-		16,6	104,1
To'rtko'l	174,2	104,1	-		174,2	104,1
Xo'jayli	47,6	105,6	-		47,6	105,6
Chimboy	35,6	107,8	-		35,6	107,8
Shumanay	1,6	108,4	-		1,6	108,5
Ellikqal'a	60,8	104,3	-		60,8	104,3



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 61 222-67-45**